

IJTIMOYIY SUG'URTANI RIVOJLANTIRISH – AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISHNING MUHIM OMILI

Asqar Xaydarov

ISFT instituti dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Abstract

The article examines the indicators of the development of social insurance and factors of social protection, the pension system and its impact on the economy, including the insurance system as an important element of the social sphere in developed and developing countries.

Key words

social insurance, duration, population, factors, economy, element, developed and developing countries, financial system, pension provision, insurance contracts, health insurance.

Kirish

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib hamda ijtimoiy himoya sohasida tizimli islohotlarni izchil davom ettirish va yanada takomillashtirish, aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash, davlat ijtimoiy yordami va ijtimoiy sug'urta tizimi va xizmatlarini ko'rsatishda samarali idoralararo muvofiqlashtiruvchi tizim shakllantirildi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, har bir mamlakat fuqarolari manfaatlariga taalluqli bo'lgan ijtimoiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilish instituti, moliya tizimi va sug'urta sohasining muhim elementi hisoblanadi hamda iqtisodiyot rivojlangan va jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining eng muhim ijtimoiy kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

2022–2030-yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish milliy strategiyasi ishlab chiqildi. Unda aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida asosiy quyidagi islohotlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

1. Ijtimoiy sug'urta tizimini joriy etish:
2. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam samaradorligini oshirish:

3. Ijtimoiy xizmatlarni mustahkamlash kabi masalalar o'rin olgan

Fuqarolarning keksayganida, kasalligida, mehnatga layoqatini qisman yoki to'liq yo'qotganida, boquvchisiz qolganida, ishsizlikda ijtimoiy sug'urta asosida moddiy ta'minotga oid konstitutsion huquqlarining ta'minlanganligi holati davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-madaniy jihatdan rivojlanganlik darajasini belgilab beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN – United Nations) va uning tarkibidagi Bolalar fondi (UNICEF – United Nations Children's Fund)ning ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining aksariyati yetarli darajada ijtimoiy himoyaga ega emas. Xususan, "jami ishsizlarning faqat 22 foizi ishsizlik nafaqasini, nogironlikning og'ir shaklida bo'lgan shaxslarning faqat 28 foizi nogironlik nafaqasini oladi, barcha bolalarning uchdan bir qismi ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olingan va bola tug'ilishi bilan bog'liq pul to'lovlari (suyunchi puli) onalarning faqat 41 foiziga nasib qiladi" [1. 21-23]. Bunday sharoitda aholini ijtimoiy himoya qilishda, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish masalalari alohida dolzarblik kasb etadi.

Ijtimoiy sug'urtaning mazmun-mohiyati hamon turli iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinayotganini ta'kidlab o'tmoq lozim. Ammo, barcha ta'riflarda ijtimoiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilishning muhim yo'nalishi (shakli) ekanligi e'tirof etiladi [2. 209-210].

Ijtimoiy sug'urtaning o'ziga xos mazmuni qonunchilikda ham mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq, davlat ijtimoiy sug'urtasi hisobidan beriladigan ta'minot turlari sifatida, asosan, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari, ayollar esa, bundan tashqari, homiladorlik va tug'ish nafaqalari, bola tug'ilganda beriladigan nafaqalar, davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik nafaqalari qayd etilgan [3].

Fikrimizcha, ijtimoiy sug'urtaga xos bo'lgan eng muhim xarakterli belgilarning birinchisi ularning, eng avvalo, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishga qaratilganidir. Ijtimoiy sug'urta ijtimoiy himoyaga muhtoj turli aholi qatlamini moddiy qo'llab-quvvatlanishini nazarda tutadi va shu nuqtayi nazardan maxsus jamg'armaga ega bo'lmog'i lozim. Bu jamg'arma mablag'lari ish beruvchilar, shuningdek sug'urta qilingan xodimlarning badallari hisobidan shakllantiriladi. Demak, ijtimoiy sug'urta badallarga asoslanadi. Bu uning ikkinchi muhim xarakterli belgisi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta aholini turli xavf-xatarlardan, ijtimoiy risklardan himoyalash shaklidir. Bu – ijtimoiy sug'urtaga tegishli uchinchi muhim xarakterli belgi. Barcha xodimlar davlat yo'li bilan ijtimoiy sug'urta qilinishlari lozimligi, ya'ni majburiyligi ijtimoiy sug'urtaning to'rtinchi muhim xarakterli belgisi deyish mumkin.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlardan A.Vahobovning fikricha, O'zbekistonda fuqarolar nafaqa ta'minoti tizimi ikki darajali bo'lib, birinchisi, avlodlar birdamligiga asoslangan "taqsimlanuvchi" va ikkinchisi, jamg'arib boriladigan nafaqa tizimidir degan va nafaqa ta'minot tizimining moliyaviy holatiga salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida jamg'arib boriladigan nafaqa tizimini rivojlantirishni tavsiya qilgan. Unga ko'ra, "samarali nafaqa tizimi davlat, iqtisodiyot va ishchilar manfaatlarini hisobga olishi kerak" deb ta'kidlaydilar [5. 18].

Taniqli iqtisodchi olimlardan A.D Ayushiyevning ilmiy ishlarida ijtimoiy sug'urtaning xarakterli belgilaridan kelib chiqib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha moddiy ta'minotning bir qancha turlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Ulardan birinchisi nafaqa sug'urtasidir. Nafaqa ta'minoti tizimi davlat ijtimoiy himoya siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, keksa, nogironligi bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni moddiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuini nazarda tutadi [6. 40].

Tibbiy sug'urta


Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish ijtimoiy himoyaning tarkibiy qismlaridan hisoblanadi va uning moliyaviy ta'minotida tibbiy sug'urta ajratmalari muhim o'rin egallaydi. Tibbiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda tibbiy sug'urtaning mohiyatini ifodalashga xizmat qiluvchi ta'riflar mavjud. Rossiyalik iqtisodchi-olimlardan Shixov A.K dissertatsiya ishida: "tibbiy sug'urta – tibbiy xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan xarajatlardan iborat bo'lgan sug'urtaning bir turi" – deb ta'kidlagan [7. 304]. Taniqli iqtisodchi-olimlardan V.M. Rodionova, Y.Y. Vavilovning ilmiy ishlarida "tibbiy sug'urta – turli ko'rinishdagi sog'liqni yo'qotish jarayonida aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish shaklidir" – deb ta'riflangan [8. 187].

Iqtisodchi olimlardan B.S.Boltayevning ilmiy ishlarida «tibbiy sug'urta shartnomasi mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasining bozor munosabatlariga muvofiq o'z-o'zini moliyalashtirish vositasi sifatida baholanadi. Ushbu shartnoma asosida aholining barcha qatlamlari ma'lum haq evaziga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadi va sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy rivojlanishiga sabab bo'ladi. Tibbiy sug'urta shartnomasining majburiy ko'rinishi aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilishning shakli hisoblanadi deb tavsiya qilingan.



1-rasm. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha moddiy ta'minoti turlari

O'zbekistonda fuqarolar nafaqa ta'minoti tizimi ikki darajali bo'lib, birinchisi, avlodlar birdamligiga asoslangan "taqsimlanuvchi" va ikkinchisi, jamg'arib boriladigan nafaqa tizimidir (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilishi

Tibbiy sug'urta

Aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatish ijtimoiy himoyaning tarkibiy qismlaridan hisoblanadi va uning moliyaviy ta'minotida tibbiy sug'urta ajratmalari muhim o'rin egallaydi. Tibbiy sug'urta aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tayanch nuqtasi hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda tibbiy sug'urtaning mohiyatini ifodalashga xizmat qiluvchi quyidagicha ta'riflar mavjud:

– *"tibbiy sug'urta – tibbiy xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan xarajatlardan iborat bo'lgan sug'urtaning bir turi"*;

– *"tibbiy sug'urta – bu sug'urta faoliyatining alohida tashkiliy shakli"*;

– *"tibbiy sug'urta – turli ko'rinishdagi sog'liqni yo'qotish jarayonida aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish shakli"*;

– *"tibbiy sug'urta – bu sog'liqni saqlashda aholining manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish shakli"*;

– *"tibbiy sug'urta shartnomasi mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasini bozor munosabatlariga muvofiq o'z-o'zini moliyalashtirish vositasi sifatida baholanadi. Ushbu shartnoma asosida aholining barcha qatlamlari ma'lum haq evaziga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadi va sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy rivojlanishiga sabab bo'ladi. Tibbiy sug'urta shartnomasining majburiy ko'rinishi, aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilishning shakli hisoblanadi"*.

O'ylashimizcha, yuqoridagi keltirilgan ta'riflarga aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, tibbiy sug'urta aksariyat holatlarda ijtimoiy himoya shakli sifatida e'tirof etilmoqda. Aslida, ijtimoiy himoya tushunchasi keng qamrovli bo'lib, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam tushunchalarini o'zida mujassamlashtiradi. Tahlillar ko'rsatishicha, tibbiy sug'urta qator xususiyatlarga ega. Jumladan, tibbiy sug'urta pullik tibbiy xizmatdan foydalanuvchiga sug'urta tashkiloti bilan o'zaro hamkorlik shartnomasiga ega tibbiyot muassasasiga to'lanadi. Bunda sug'urta puli sug'urtalangan shaxsning kasallik holatini hisobga olib, sug'urta hodisasi ko'zda tutilgan hollarda to'lanadi. Muxtasar aytganda, tibbiy sug'urta kasallik yoki baxtsiz hodisa yuz berganida, sog'lig'i yo'qolgan taqdirda sug'urtalovchi tomonidan sug'urta dasturiga kiritilgan tibbiy xizmatlar bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni qoplaydigan ijtimoiy sug'urtaning bir turidir.

Tibbiy sug'urta sog'liqni saqlash tashkilotlari va tibbiyot xodimlari faoliyatlarining pirovard natijalari bo'yicha mas'uliyati va iqtisodiy manfaatdorligini oshirishning muhim dastagi, tibbiyot tashkilotlari o'rtasida raqobatni rivojlantirish omili hisoblanadi.

Koronavirus pandemiyasi sharoitida mamlakatimizda tashkil etilgan "Inqirozga qarshi kurashish jamg'arma"si hisobiga 2020-yil 29-dekabrgacha bo'lgan davrda jami 16,0 trln. so'm mablag' kelib tushgan [11]. Jamg'arma tomonidan 4,0 trln. so'm mablag' koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish, jumladan, ushbu mablag'larning 37,5

foizi dori vositalari va tibbiy buyumlar, himoya vositalari va test tizimlari bilan ta'minlash hamda karantinda saqlash xarajatlarini qoplash maqsadida ishlatilgan bo'lsa, 62,5 foizi esa tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish, respublika sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan himoya choralarini amalga oshirishga yo'naltirildi [12].

"Covid-19" bilan kasallanganlarni davolash mamlakatlarning iqtisodiy o'sish, rivojlanish darajasi va sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish modeliga qarab farqlanadi (1-jadval).

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, ayrim mamlakatlarda kasallikni davolash xarajatlari to'liq davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan bo'lsa, ba'zilarida fuqarolar tibbiy sug'urtadan, tibbiy sug'urta joriy etilmagan mamlakatlarda esa bemorlarni davolanish bilan bog'liq xarajatlarni o'z hisobidan amalga oshirmoqda. Jumladan, "Covid-19"ga chalingan har bir bemorni davolash xarajatlari tibbiy sug'urta hisobidan qoplanmoqda. Uning salmog'i AQSHda 50 foiz, Germaniyada 96 foiz va Fransiyada 80 foizni tashkil etadi. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda «Covid-19» pandemiyasi sharoitida bemorlarni davolash xarajatlarini qoplashda tibbiy sug'urta va davlat budjeti xarajatlari muhim o'rin egallagan.

**"Covid-19" pandemiyasi sharoitida davolash xarajatlarida
tibbiy sug'urtaning o'рни
(17.02.2021-yil holatiga)**

1-jadval

Mamlakatlar	Kasallikka chalinganlar soni, ta	Bir bemorni davolashning o'rtacha xarajatlari, AQSH dollari hisobida	Tibbiy sug'urta hisobidan qoplangan qismi, foizda
Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlar			
AQSH	28 319 964	34 000	50,0
Germaniya	2 348 748	32 000	96,0
Buyuk Britaniya	4 047 843	30 000	50
Fransiya	3 469 539	25 000	80,0
Ispaniya	3 086 286	20 000	50
Bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlar			
Xitoy Xalq Respublikasi	89 788	12 250	66,6
Hindiston	10 931 492	4 150	-
Turkiya	2 594 128	15 973	10

Bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlar			
Rossiya Federatsiyasi	4 099 323	3 150	60,0
O'zbekiston	79 461	4 650	-
Qozog'iston	203 259	540	-
Qirg'iziston	85564	734	30,0

Jahon amaliyotida tibbiy sug'urta barcha yollanib ishlovchilar uchun majburiydir va majburiy tibbiy sug'urta sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy asosini tashkil qiladi. Jahonda tibbiy sug'urta tizimi rivojlangan bo'lib, uni moliyalashtirishning yetakchi manbasi bo'lib tibbiy sug'urta mablag'lari hisoblanadi. Bunda davlat va sug'urta kompaniyalarining faol ishtiroki kuzatiladi.

Xorij tajribasi tahlili ko'rsatishicha "Covid-19" pandemiyasi sharoitida tibbiy sug'urtani rivojlantirish aholi sihat-salomatligini ta'minlashda qanday afzalliklarga egaligini isbotladi. "Covid-19" pandemiyasi davrida koronavirusga chalingan insonlarni davolash va aholi salomatligini saqlash bilan bog'liq xarajatlar mamlakatlarda turli shakllarda amalga oshirilmogda. Pandemiya davrida sog'liqni saqlash tizimiga yuqori bosim tushmogda. Bu esa, o'z navbatida, tibbiy sug'urta tizimini rivojlantirilishi zarurligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalligidan ijtimoiy sug'urtalash

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 10-sentabrdagi O'RQ-174-sonli "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonunga ko'ra, sug'urtalangan shaxsning u mehnat shartnomasi bo'yicha o'z vazifalarini sug'urta qildiruvchining hududida yoki undan tashqarida bajarayotganda mehnatda mayib bo'lishiga yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va sug'urtalangan shaxsni boshqa ishga o'tkazish zaruriyatini keltirib chiqargan, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga, yoxud vafot etishiga sabab bo'lgan hodisa ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa hisoblanadi. Sug'urtalangan shaxsga unga ishlab chiqarishning zararli yoki xavfli omili ta'siri natijasida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg'un yo'qotishiga sabab bo'lgan o'tkir yoki surunkali kasallik kasb kasalligini anglatadi.

Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Germaniyada ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy sug'urta asosida tashkil etilgan bo'lib, ishchilarni bunday risk turidan sug'urtaviy himoya qilish ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urtalash tizimi institutlari tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur institutlar tomonidan ishlab chiqarishda jarohatlanganlarga, nafaqat, kompensatsiya to'lanadi, balki davolash va rehabilitatsiya xizmatlari tashkil etilishida ko'maklashadi. Buyuk Britaniyada ishchilarni bunday ijtimoiy risklardan himoyalash xususiy sug'urta asosida tashkil etiladigan korporativ sug'urta tizimiga tayaniladi. Kasb kasalliklari bo'yicha sug'urta to'voni sog'liqni saqlash tizimi orqali davlat budjetidan to'lab beriladi.

O'ylashimizcha, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalligidan ijtimoiy sug'urtalash ish beruvchi va ishchilarning ijtimoiy sug'urta ajratmalari hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy sug'urta jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanishi zarur.

Ijtimoiy nafaqalar

Aholini moddiy ta'minlashning muhim shakllaridan biri hisoblangan ijtimoiy nafaqa fuqarolarga muayyan sabablarga ko'ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan va doimiy ravishda yordamga muhtojlarga davlat tomonidan beriladi. Mamlakatimizda fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, moddiy yordamga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, imkoniyati cheklangan shaxslarga moddiy ko'mak berishga yo'naltirilgan ijtimoiy nafaqalarning bir qancha turlari amal qiladi.

O'zbekistonda amal qilayotgan ijtimoiy nafaqalarni yo'nalishiga qarab, quyidagicha tasniflash mumkin (3-rasm). Ijtimoiy nafaqalarning yo'nalishi bo'yicha tasnifidan ma'lumki, ularning ayrimlari doimiy yoki har oyda yoxud bir marotaba to'lanishi, boshqalari kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi, qolganlari tirikchilik uchun zarur bo'lgan manbalari yo'qligi sababli hamda uzrli sabablarga ko'ra vaqtincha yo'qotilgan ish haqi o'rnida ma'lum bir muddat davomida yoki unga tenglashtirilgan miqdorda to'lanishi bilan xarakterlanadi.

Ishsizlik nafaqasi

Ishsizlik nafaqasi ishsiz deb e'tirof etilgan shaxsga u ish qidirayotgan shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro'yxatdan o'tgan kundan e'tiboran tayinlanadi. Qaramog'ida uchtagacha kishi bo'lgan, o'ttiz besh yoshga to'lmagan ishsiz erkakka ishsizlik nafaqasi u haq to'lanadigan jamoat ishlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda ishtirok etgan taqdirda tayinlanadi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan shaxslar uchun ishsizlik nafaqasi oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida belgilanadi. Boshqa hollarda ishsizlik nafaqasi qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoriga foiz nisbatida belgilanadi. Qaramog'ida o'n olti yoshga to'lmagan bolalari va boshqa kishilar bo'lgan ishsiz shaxslarga nafaqa miqdori o'n foizga oshiriladi. Ishdan va ish haqidan (mehnat daromadidan) mahrum bo'lgan taqdirda, ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga oldingi ish joyidagi o'rtacha ish haqining ellik foizi miqdorida, ammo qonun hujjatlarida belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan oz bo'lmagan va nafaqani hisoblash paytida O'zbekiston Respublikasida tarkib topgan o'rtacha ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi to'lanadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, demografik omillar, jumladan, aholi yosh tarkibining jiddiy o'zgarishi, aholining umr ko'rish davomiyligining oshib borishi nafaqa to'lovlarini moliyalashtirishning taqsimlanuvchi tizimi amal qiluvchi mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta, tibbiy sug'urta tizimini isloh qilish asosida milliy nafaqa modelini takomillashtirish zarurligini taqozo etadi.



3-rasm. Ijtimoiy nafaqalarning yo'nalishi bo'yicha tasnifi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Доклад о целях в области устойчивого развития. Организация Объединённых наций. – Нью-Йорк, 2019. – С. 21-23. (https://unstats.un.org/sdgs/report/2019/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2019_Russian.pdf).
2. Wannagat Georg. Sozialrecht und Sozialpolitik//Sozialrecht und Sozialpolitik. Festschrift für Kurt Jantz zum 60. Geburtstag. – Stuttgart Berlin Köln Mainz: Verlag Kohlhammer, 1973. – S. 209- 210
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 1995-yil 21-dekabr. 284-modda.
4. Mamatov B., Nurmuxamedova B. Ijtimoiy ta'minot. – T.: Iqtisod-moliya, 2019.
5. Vaxabov A.V. va boshq. Nafaqa tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2018. – B. 14.
6. Аюшиев А.Д., Русакова О.И. Медицинское страхование: Учеб. пособие. – Иркутск: Изд-во ИГЕА, 1997.
7. Шихов А. К. Страхование право: Уч. пособие. 3-е изд. – М.: «ЗАО Юститсинформ», 2004. – 304 с.
8. В.М. Родионова, Ю.Я. Вавилов, Л.М. Гончаренко и др. Финансы. Под ред. В.М. Родионовой. – М.: Финансы и статистика, 1993.
9. Закон Российской Федерации от 28.06.1991. №1499-1 (ред. от 24.07.2009.) «О медицинском страховании граждан в Российской Федерации». Статья 1.
10. Boltayev M.S. Tibbiy sug'urta shartnomasini fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari. Yuridik fan. nomz. ilm. dar. ol. uch. baj. diss. Avtoref. – T.: O'MU, 2011. – B. 18- 19.
11. https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=571
12. https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=571.
13. <https://teyit.org/en/claims-about-treatment-expenses-of-covid-19-in-some-countries/>